

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Н.Н.Бобоҷонов, Г.Г.Козлова

8 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarda qo'shma ta'sir qilish usuli yordamida harakatni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini yaxshilash 111

D.T.Abduraimov

Talabalar hayoti sifatini yaxshilashda atletik gimnastika vositalaridan foydalanishning samaradorligi..... 116

F.M.Mamadova

Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish mexanizimi 121

M.M.Yuldashev

Ayollar organizmini jismoniy mashqlarga reaksiya qilishida hududiy omillarning ahamiyati 125

N.J.Madaminova

Maktabgacha ta'llimda ingliz tilini o'rganish uchun geymifikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: samaradorlik va natijalar tahlili 129

S.M.Sidikov

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini nazorat qilish modernizatsiya..... 133

S.B.Erkinova

Oliy ta'llim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning kognitiv faoliyatini tuzilishi va turlari 139

IQTISODIYOT**M.R.Dadashzade**

Administration of the production areas based on innovative technology..... 143

FALSAFA**I.M.Arzimatova**

O'zbekistonda modernizatsiya jarayonlari va rahbar kadrlar faoliyati..... 148

F.A.Yuldashev

Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaat kategoriyasining namoyon bo'lishi (ijtimoiy-falsafiy tahlil)..... 153

Sh.Ismatov

Yangi O'zbekistonda ma'rifiy jamiyat barpo etishning nazariy asoslari 158

B.B.Asqarov

Dizayn fikrplashda empatiya bosqichining pedagogikadagi roli 161

I.A.Asatulloev

Alfred adlerning qalb konsepsiyasida inson barkamolligi omillari..... 164

O.Ortiqov

Mustaqillik davrida ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar tahlili (1990-1994 yillar)..... 172

A.M.Nurmuxammadjonov

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yoshlар musiqiy tafakkurini rivojlantirishning istiqboldagi vazifalari 175

A.A.Sayitxonov

Ilmiy qadriyatlarning inson axloqiy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri..... 188

SIYOSAT**A.Leyla**

Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy manfaatlari 191

S.N.Abdullayev

Huquqiy ong masalasiga falsafiy yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari 196

ТАРИХ**Sh.M.Abdusatorov**

Jizzax vohasi an'anaviy taomlarining gastroturizmni rivojlantirish bosqichidagi o'rni va ahamiyati (Forish tumani misolida)..... 199



УО'К: 159.9

ALFRED ADLERNING QALB KONSEPSIYASIDA INSON BARKAMOLLIJI OMILLARI
FACTORS OF HUMAN PERFECTION IN ALFRED ADLER'S CONCEPT OF THE HEART
ФАКТОРЫ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО СОВЕРШЕНСТВА В КОНЦЕПЦИИ ДУШИ АЛЬФРЕДА АДЛЕРА

Asatulloyev Inomjon Abobakir o'g'li

Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrasи dotsenti, Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya

Alfred Adler qarashlarida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi bilan insonning yakka-shaxsiy borlig'i o'tasidagi aloqasigagina emas, balki insonda iqtisodiy vaziyatga nisbatan inson ruhiyatida teskari tasavvurning tug'ilishiga qaratilganligi tadqiq etilgan.

Аннотация

В взглядах Альфреда Адлера внимание уделяется не только связи между социально-экономической структурой общества и личным существованием человека, но и возникновению обратного восприятия в человеческой психике в отношении экономической ситуации, что было исследовано.

Abstract

In Alfred Adler's views, the focus is not only on the relationship between the social-economic structure of society and an individual's personal existence, but also on the emergence of a reverse perception in the human psyche in relation to the economic situation, which has been studied.

Kalit so'zlar: qalb, ruhiyat, psixoanalitika, ongsizlik, ma'nnaviy olam, ruh, jon, borliq, tana, qalb konsepsiysi.

Ключевые слова: душа, психика, психоанализика, бессознательное, духовный мир, дух, душа, существование, тело, понятие души.

Key words: soul, psyche, psychoanalysis, unconsciousness, spiritual world, spirit, soul, being, body, concept of the soul.

KIRISH

Hozirgi zamon falsafasida inson qalbi masalasi yirik va taniqli olimlar tomonidan chuqur o'r ganilmoqda. Inson qalbi masalasi ma'nnaviy-madaniy tafakkurining muhim masalasi sifatida, falsafiy tafakkur tarixiga yangi yo'nalish bo'lib kirdi. Bunda mutafakkirlardan biri Alfred Adler hisoblanadi.

Qalb tarbiyasi va pedagogika masalalari Adlerni doimo qiziqtirgan. Buning natijasi sifatida olimning "Shifo, olim va tarbiya" nomli asari nashr etiladi. U to'g'ri tarbiya berish nafaqat shaxsnинг ijodkorlik imkoniyatlarini ochadi, balki jamiyatning axloqiy hayotiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, deb hisoblaydi. O'zining pedagogik tamoyillarini ruhiy amaliyotda ham qo'llaydi. Inson ruhiy faoliyatini buzuvchi ongsizlik xislatlarini ochishdan tashqari Adler o'z vazifasini bemor kasalligining kelib chiqish sabablarini aniqlab davolash bilan bir qatorda uning hayotga moslashishi uchun yordam choralarini ham belgilab berishda, deb biladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inson shaxsini, ichki ruhiy olamini tushunish – u mansub bo'lgan tabiiy va ijtimoiy muhitni ochishni anglatadi. Shunday ma'noda inson, bir tomonidan, zaif, himoyasiz biologik mavjudot sifatida o'z "nomukammallik hissi" o'rnini "hukmronlikka intilish" bilan qoplaydi, boshqa tomonidan, ijtimoiy mavjudot sifatida "umuminsoniy hissiyot"ga ega va butun insoniyat zotiga dahldor bo'lgan xilqatdir. Inson mavjudligining ana shu tomonlari o'tasida uzilmas rishta mavjud, Adler fikriga ko'ra, shuni echish zarur. "Individual psixologiya" ongsiz ravishda "hukmronlikka intilish" tabiatini ochish, insonlar o'tasidagi ijtimoiy aloqalarni hal qilmog'i, umuminsoniy birdamlikka erishish, insoniyat zotiga xos bo'lgan ijtimoiylik hissiyotiga asoslangan nuqtani axtarish bilan shug'ullanadi. Bu erda asosiy mezonn "ijtimoiy hissiyot" (yoki "ijtimoiy intilish") o'ynaydi. "Ijtimoiy hissiyot" – insonlar va inson jamoalari o'tasidagi aloqani, insonning umuminsoniy munosabatlar bilan aloqasini bildiradi. Adler fikricha, faqat "ijtimoiy hissiyot" yordamida ruhiy hayot hodisasini samarali o'rganish mumkin"^[1].

"Ijtimoiy hissiyot" Adler fikricha, zaruriy, lekin inson tabiatini sinoatini yorituvchi yagona mezon emas, undan kam bo'limgan yana bir mezon – ongsiz holdagi "hukmronlikka intilish"dir. Xuddi shular

FALSAFA

“individual psixologiya”da inson mavjudligining umumiy, mohiyatiy omillarini tashkil qiladi. Bu inson ruhiy rivojining ikki yo’nalishini belgilaydi hamda hayotiy faoliyatini yo’naltiradi, hayot tarzini shakllantiradi. Shaxsning ichki dunyosi insonning ijtimoiy-ruhiy xususiyatini, inson xulqi ildizlarini ochishda yordam beruvchi asosiy rolni o’ynaydi.

“*ijtimoiy manfaat*” tushunchasi Adler talqinida faqat insonlarning o’zaro umuminsoniy yoki yakka-shaxsiy aloqalarini o’z ichiga olibgina qolmay, balki inson tomonidan hayotning umumiy bog’lovchi munosabatlarini ham qamraydi. Bu shuni bildiradiki, har bir shaxs o’zini boshqa inson ko’zi bilan ko’radi, hayotiy vaziyatlarni ijtimoiy qabul qilingan jihatlar orqali baholaydi. Bular insonlarning muayyan jamoada yashashi natijasida kelib chiqqan madaniy, axloqiy va ijtimoiy me’yorlardir. Huquqiy munosabatlar, axloqiy va estetik baholar “*ijtimoiy manfaat*”ga asoslangan. Zero hamma nazariy va amaliy “hayotiy muammolar ijtimoiy manfaatga ega bo’ladi”[2]. “*Individual psixologiya*” insonga ana shu qadriyatlarni anglash uchun va hayotiy vaziyatlarga ko’nikish uchun yordam beradi.

Shu o’rinda Adler qarashlariga yaqin bo’lgan buyuk mutafakkir Ibn Sinoning fikriga to’xtalsak. Uning qarashlarida insonning kamol topishida atrofdagilar ta’siri hamda tarbiyaning roliga ahamiyat beriladi. Ibn Sino o’zining bir qancha asarlarida axloqiy tarbiya muammolarini asosiy masala qilib qo’yadi. “Shifo”, “Ishorat”, “Donishnoma” kabi asarlarida tarbiya masalalari chuqr falsafiy jihatdan yoritilgan. “Hayy ibn Yakzon”, “Salomon va Ibsol”, “Tayr”, “Tib qonunlari”, “Tadbiri manzil” kabi asarlarida yoshlarning yuksak axloqiy tarbiyasining aniq va amaliy tomonlari ko’rsatiladi. “Hayy ibn Yakzon” asarida Ibn Sino ijobjiy va salbiy xislatlarni insonning doimiy “yo’ldoshi” sifatida olib qaraydi. Inson tarbiya talab qilgan darajada eng yaxshi narsalarni idrok qilishi va o’ziga singdira borishi kerak. Insondagi mayl va istak haqida Ibn Sino qiziqarli fikrlar bayon qilgan[3]. Mutafakkir uning uch ko’rinishini ko’rsatadi:

1. Tabiiylik vositasi bilan paydo bo’ladigan his istagi (bunga jinsiy sevgi, orzu-havas qilish, yaxshi ovqat va kiyimga havas kabilalar kiradi).
2. Qahr-g’azab va boshqa kuchli ruhiy hislar vositasi bilan paydo bo’ladigan istak (bunga tushunib yetmaslik, g’am-hasrat, nafrat, ichiqoralik, ko’rolmaslik, baxillik, rashq kabilalar kiradi).
3. Oqilona istak va mayl (bunga kamtarlik, chidamlilik,adolatlilik, donolik, oljanoblik, chin insoniylik kabi kishidagi eng yaxshi fazilatlar kiradi).

Insondagi eng yaxshi ijobjiy sifatlar, avvalo, chidamlilik, donishmandlik va mardlikda ko’rinadi, deydi Ibn Sino. Mana bu uch ijobjiy xislat birgalikda adolat va mo’tadillikni yuzaga keltiradi. Agar kishida mana shu sifatlar bo’lsa, u o’z tabiatini qo’lga olishi, yomon yo’llarga berilmasligi, faqat yaxshi ishlar qilib, lazzatlanishi mumkin[4].

Abu Ali ibn Sino axloqning asosiy muammolariga va axloqiy tarbiya masalasiga oqilona yondashgan. Tarbiya avvalo kishilarda mehnatga va voqe-hodisalarga oqilona qarashni o’rgatishi kerak. Chunki, insondagi hamma yaxshi xususiyatlar va butun insoniyat baxti ana shu aql va donolik asosida yuzaga keladi, deb uqtiradi buyuk mutafakkir. Uning bu fikrlari g’oyat qimmatlidir va Adler qarashlari bilan hamohangdir.

Shunday qilib, oxir-oqibat “*ijtimoiy manfaat*” va “*hukmronlikka intilish*”ning adlercha talqini qanchalik ziddiyatli bo’lishiga qaramay, bir o’zanga yo’naltirilgan. Zoton, “*ijtimoiy manfaat*” ongsiz “*hukmronlikka intilish*”ning bevosa inkori bo’lishi kerak, chunki u shaxsning biologik tayyor bo’lmagan intilishlari bilan emas, eng avvalo insonlarning aqlga monand ijtimoiy hayoti bilan bog’liq. Biroq Adler nazariyasida “*ijtimoiy manfaat*” ham, “*hukmronlikka intilish*” ham teng ma’noda inson to’liqsizligi o’rnini qoplovchi tizim vazifasini bajaradi. “*Ijtimoiy manfaat*, - deb ta’kidlaydi olim, - bu inson mavjudligining tabiiy ojizligini haqiqiy va zaruriy ravishda o’rnini qoplovchi tizimdir”[4]. Aynan “*ijtimoiy manfaat*” tufayli, Adler fikriga ko’ra, shaxsning ijtimoiy qabul qilgan muayyan hayotiy vaziyatga ko’nikishi va moslashishi sodir bo’ladi. Bular ijtimoiy va ruhiy darajalarda amalga oshadi. Demak, adlercha “*hukmronlikka intilish*” hamda “*ijtimoiy manfaat*” ta’limoti bir xil darajali tabiatga ega. Ikkisi ham nomukammallik hissi va insonning ojizligi, himoyasizligi natijasida vujudga keladi. Ikkisi ham tabiiy va ijtimoiy dunyoga moslashish tizimining rivoji uchun turtki rolini o’ynaydi.

Adler insonni ijtimoiy mavjudot sifatida talqin qilib bir qadam oldinga ketdi. U ijtimoiy munosabatlar deganda nafaqat oilavly munosabatlarni (xuddi Freyd singari), ramziy-jamoaviy aloqalarni (Yung kabi) emas, balki qonuniy-huquqiy, axloqiy-xulqiy va xususiy mulkiy, mehnat munosabatlarini nazarda tutadi. Lekin bu ruhiyat tahlili harakatida to’ntarilish bo’lmadi. Chunki, bu munosabatlar insonning ongsiz intilishlari chegarasidan chiqib keta olmadi. Insonga xos bo’lgan ijtimoiy hissiyot va manfaat o’z negizida biologik tug’ma xususiyatga ega bo’ladi. Qisqacha, xulosa

shuki, "nomukammallikni engishga intilish qanchalik tug'ma bo'lsa, ijtimoiylik hissiyoti ham shunchalik tug'madir"[2;137].

Faylasuflar va psixologlar hamma narsani qat'iy sabablarga ko'ra shartlanganligini tan oladilar. Buni Adler keng tarqalgan kamchilik deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, psixologiyada sababiylilik va zaruriy bog'liqlik haqida gapirib bo'lmaydi, chunki shaxsning ruhiy faoliyatining yo'naliishini tushuntirishda tabiiylik va ta'sir etuvchilar asoslovchi tamoyil bo'lolmaydi. Inson xulqini, hayot faoliyati va unga ta'sirini tushuntirish uchun uning *oxirgi maqsadi* hamda intilishini bilish zarurdir. Zero, "insonning ruhiy hayoti, uning maqsadi orqali shartlangan, uning xulqi to'liqligicha maqsadga intilishida namoyon bo'ladi"[1].

Adlerning bunday qat'iy yondashuvda turishi sababiylilik omillarni butunlay tan olmaslididan dalolat bermaydi. Sababiylilik shaxs xulqini tushuntirishda, uning faoliyatini olib berishda ahamiyatga ega bo'lmaydi. Lekin shaxs ijtimoiy lashuvi va rivoji tuzilmalarini aniqlashda sababiylilik muayyan rolni o'ynaydi. Olimning ta'kidiga ko'ra, shaxs rivojining sababi "to'liqsizlik hissini" engib o'tishda namoyon bo'ladi. Bu hol insonning tabiatan biologik nomukammalligi tufayli hosil bo'ladi. Xususan, "o'rnini qoplash" va "o'ta o'rnini qoplash" tuzilmalari inson hayot faoliyatini harakatga chorlovchi sabab sifatida ko'riladi. Adler tushunchasiga ko'ra, ana shu sababning mavjudligi inson harakatining yo'naliishini tushuntirmaydi, balki faqatgina inson faoliyatining imkoniyatini sababini ochadi. Bu sabab oxirgi maqsadga etishgandagina namoyon bo'ladi. Oxirgi maqsad har qanday inson faoliyatining mayog'idir. Shunday qilib, shaxsning ichki ruhiy faoliyatining mazmuni, shaxsning yashirin imkoniyatlarini o'z-o'zidan ochilishining sababi, oxirgi maqsadga erishish uchun intilishi zaruriy tarzda ruhiy tadqiqotlar chegarasidan chiqib ketadi va falsafa sohasiga dahldor bo'ladi. Shuning uchun ham Adler ana shu muammolarni hal qilishda falsafiy nuqtai nazardan yondashishga majbur bo'lgan.

Qayd etish zarurki, maqsad masalasi qadimda ko'pgina mutafakkirlarni qiziqtirgan, turli falsafiy maktablar o'rtasida bahs-munozaraga sabab bo'lgan. Falsafa tarixida uning hal qilinishi ikki asosiy yo'naliishda davom etadi: ilohiy ta'llimot sifatida, bu "borliqning obyektiv maqsadi", butun mavjudlikning maqsadga muvofiq yaratilganligi asosida hamda "iroda erkinligi" inson mavjudligining o'ziga xos xususiyat ekanligi haqidagi ta'llimot negizida rivojlandi. Adler Arastu falsafasidan kelib chiquvchi an'anaviy falsafa tarafida bo'ldi. Unga ko'ra, har qanday narsa, uning oxirgi maqsadi bilan aniqlanuvchi ichki mohiyati, tashkili tuzilishni ochilgandagina tushuniladi.

Tadqiqotchi V.N.Kuznetsovning ta'kidlashicha, ma'lum ma'noda oxirgi maqsadning adlercha talqini Kantning inson faoliyatining maqsadli yo'nalanligi haqidagi mulohazalariga o'xshab ketadi. Zero, Kant inson faoliyatining *maqsadga muvofiqlik* xususiyati haqidagi g'oyani ilgari suradi, *ongli* shakllangan maqsadga diqqatni qaratadi[5]. Adler *ongsiz* maqsadli aloqalar haqida gapiradi. Olimning tasavvuriga ko'ra, oxirgi maqsad shaxs "o'rnini qoplash"ning ongsiz tuzilmalarida aniqlanadi. Bu bilan Adler kantcha qarashdan uzoqlashadi. Uning maqsad haqidagi nazariy-falsafiy nuqtai nazarining asosiy jihatlari V.Dilteyning ilohiy (teologik) ta'llimotiga mos keladi. Kantdan farqli ravishda Dilteyning fikriga ko'ra, maqsadli aloqalar ongda bo'lishi shart emas, ular ongsiz ham bo'lishi mumkin. Bir vaqtning o'zida "ular – o'ylab topilmagan, sarobiy mohiyatlardir. Ular – ruhiy voqelikdir"[6]. Dilteyning ongsiz maqsadli aloqalar haqidagi ta'llimotini tahlil qilib, Adler shaxsning maqsad sari *ichki intilishi*, ruhiy hayotning maqsadga muvofiqligi haqidagi qoidani ilgari suradi. Agar Diltey uchun ruhiy voqelik maqsadning o'zi bo'lsa, Adlerda maqsadga intilish asosiy omil rolini o'ynaydi[1;73]. Unga ko'ra, maqsad – bu loyihalashtirish (fiksiya)dir. Shu tufayli inson olamiy betartiblikda, mavjudlik dunyosida o'z yo'naliishini topadi. Loyiha – bu maxsus o'ziga xos ruhiy tuzilmadir. U tabiiy va ijtimoiy borliq mohiyatining hayoliy shaklini hosil qiladi va unda amaliy jihatdan o'z o'rnini topishga yordam beradi. Loyihaning bunday talqini G.Fayxinger qarashiga mansub bo'lib, ta'llimot olimning "*Ya'ni falsafa*" (1911) nomli asarida o'z ifodasini topgan.

Inson harakati turtkisini, hayotiy maqsadini Adler fikriga ko'ra, "agar boshqacha" falsafasi yordamida tushunish mumkin. Ushbu falsafa orqali "yaqin orzu" andozasi tuziladi, inson hayoti davomida shu loyiha intiladi va muayyan vaziyatda ana shu loyiha orqali harakat qiladi. Bu erda ziddiyat yuzaga keladi, ya'ni hayoliy bo'lgan oxirgi maqsadni bilish ilohiy loyiha, taqdir (belgilanganlik) yordamida amalga oshadi va ongsiz ruhiy mohiyatlar maqomini oladi. Oxirgi maqsad, Adler fikriga ko'ra, voqeiy emas. Shuning uchun sababiy munosabatlarni ochilganda ham u namoyon bo'lmaydi. "Lekin u yo'naltirilishga muhtoj bo'lgan qalbning ilohiy yo'li sifatida tushunilishi mumkin. Bu ilohiyotga yo'naliish o'z-o'zidan vujudga keladi. U ruhiyatda shakllanadi. Uni shaxsning rejalarini sifatida qabul qilish mumkin"[2;93].

FALSAFA

Shunday qilib, Adler inson ichki tuzilmasiga xos bo'lgan, uni boshqarib va yo'naltirib turadigan qandaydir ilohiy kuch mavjudligini tan oladi. U loyihaviy ilohiyat ta'limotini ilgari suradi. Bu ta'limotga ko'ra, har bir shaxs ongsiz ravishda "agar bunday bo'lganda" hayot falsafasi loyihasini qo'llaydi, hayolida o'z hayotining ilohiy rejasini, loyihani tuzadi. Bu uning xulqini, o'ziga xos hayot tarzini boshqaradi, uning yordamida oxirgi maqsadga erishiladi. Adlerning fikricha, mazkur reja yoki loyiha inson qalbining ongsiz qatlamlaridan o'rinni oladi. Shuning uchun ham insonga ana shu dastlabki loyihani anglab etishiga yordam berish zarur. Shunda u oxirgi maqsadga etishda o'z hayot falsafasiga erishadi, kamchiliklarini tuzatadi. "Individual psixologiya"ning asosiy vazifasi ham, Adlerga ko'ra, ana shu ilohiy ijodkor kuchni namoyon qilishdan iborat.

Demak, adlercha loyihalashtirilgan ilohiy ta'limot obyektiv xususiyatga ega. Unga ko'ra, oxirgi maqsadni ko'zlagan insonning ruhiy hayoti, faoliyatni faqat ichki rejaga asosan amalga oshadi. Bu ichki reja insonning yakka-shaxsiy yutug'idir; uning ildizlari go'daklik chog'lariga borib taqaladi, chunki go'dak o'z hayotida ilk loyihalarini yaratadi. Ana shu go'daklik loyihalarida Adler, bolaning "nomukammalligi"dan qutulishga bo'lgan intilishlarini kuzatadi. "Nomukammallik" tashqi voqeiy dunyo bilan to'qnashuvlar orqali sodir bo'ladi, kelajakka "ko'prik" quradi, bo'lajak yo'naltiruvchi harakatlarni aniqlaydi. Olimning fikricha, loyihalar va ongsiz istaklar asosida asta-sekin go'dakning ongsiz hayotiy rejasi shakllanadi. Keyinchalik u etuk insonning hayotiy falsafasiga aylanadi.

Adler inson hayoti ilohiy loyihasining mavjudligi haqidagi qoidasi keyinchalik ekzistensializm doirasida vujudga kelgan inson borlig'ining yakka-shaxsiy, subyektiv rejasi haqidagi ta'limotga ozuqa bo'ldi. Xususan, adlercha "hayotiy reja" tushunchasi ko'p jihatdan J.P.Sartrning "asosiy loyiha" g'oyasiga yaqin. Sartr bu masalani o'zining "Borliq va yo'qliq" nomli asarida talqin qiladi. Bu asarida muallif bir necha bor Adlerning "individual psixologiya" g'oyalariga murojaat qiladi[7]. Bu tabiiy hodisadek tuyuladi, chunki freydizm K.Yaspers, M.Xaydeger va J.P.Sartrning ekzistensial falsafasining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, ular ijodida inson "nomukammalligi", "ijtimoiy intilish" va nevrosteniya masalalarini hal etishda yagona nazariy pozitsiyani ilg'ash va anglash mumkin.

Hayotning ilohiy loyihasi, insonning shaxsiy falsafasi Adler fikriga ko'ra, oxirgi maqsadga erishish uchun intilishida, shaxsnинг mohiyatiy kuchlarining ochilishida namoyon bo'ladi. Lekin inson faoliyatini aniqlab beruvchi ana shu maqsadning o'zi nima? Adler mazkur masala bo'yicha ko'p vaqt bir qarorga kelolmaydi. Dastlab olim inson faoliyatining oxirgi maqsadi sifatida "hukmronlikka intilish"ni oladi. "Hukmronlikka intilish" shaxsnинг "nomukammallik hissi"dagi "o'ta o'rnini qoplash" rolini o'ynaydi. Keyinchalik Adler "hukmronlikka intilish"ni "ustunlikka intilish" bilan almashtiradi. "Ustunlikka intilish"ni shaxsnинг ma'naviy-ruhiy rivoji, ma'rifati, ijtimoiy tan olinishi, mavqeyi, iqtisodiy ustunligi, qudratliligi kabi ijtimoiy jihatlar bilan bog'laydi. Adlerning asarlarida insonning so'nggi maqsadi "shaxs kamoli"ga etish uchun intilishdan iborat ekanligi haqidagi fikrlar ham uchraydi [8].

O'zining so'nggi asarlarida Adler insonning oxirgi maqsadini tushunishda yangi fikrni ilgari suradi: "ustunlikka intilish" orqali "hukmronlikka intilish"ning oqibati "komillikka intilish" bo'ladi, degan yangi g'oyaga keladi. "Yetuklikka intilish" shaxsnинг yakunini, yaxlitligini, umumiyligini bildiradi. "Yetuklikka intilish" inson hayotining mohiyatiy qismini tashkil qiladi. U inson ruhiy rivojidagi sodir bo'layotgan ichki jarayonlar haqida, ilg'or tadrijiy o'zgarishlar haqida guvohlik beradi. Shu ma'nodagi intilish, Adler ta'kidiga ko'ra, tug'ma xususiyatga ega. Bu intilish – ichki mohiyat, ya'ni o'z-o'zini namoyon qilishidir, shaxs rivojining eng yuqori cho'qqisi bo'lgan – "o'zlikka" intilishdir. Bunday g'oyalar yungcha "individuatsiya" va "o'zlik" kabi ta'limotida ham uchraydi. Biroq Yungdan farqli ravishda, Adlerning "o'zligi" diniy mazmundan holi bo'ladi.

Adlerning ta'kidiga ko'ra, "komillikka intilish" ichki harakatni bildiradi. Bu harakat shaxsnинг ijtimoiylashuv jarayonida yakuniylikka va yaxlitlikka olib keladi. Agar "hukmronlikka intilish" asosida nitsshecha kuchli inson tug'ilsa, yungcha "o'zlik" ("individuatsiya") jarayonida insonning xudo bilan qo'shilishi sodir bo'lsa (ya'ni xudo insonga aylanadi va aksincha, inson - xudoga), adlercha "komillikka intilish"da inson xudo ham bo'lmaydi, kuchli shaxs ham bo'lmaydi. U to'liq ruhan shakllangan insonga aylanadi, Kant iborasi bilan aytganda "o'z-o'zi uchun oxirgi maqsad"ga[9] erishadi. Adler tomonidan "komillikka intilish" "psixologik arxetip" sifatida xarakterlanadi, usiz "hayot har qanday mazmunni yo'qotadi", bu intilish – "shaxs va butun insoniyatning hayotiy muammolarini echadi, tadrijiy o'zgarishlarini ko'rsatadi"[10].

Adler qarashlarining originalligi – inson hayotining *faollik tamoyilini* ta'kidlashida namoyon bo'ladi. Bunda, diqqatni nafaqat faollikka, balki insonning o'z-o'zini faollashtirishga qaratish kerak.

Adler asablarni davolash amaliyoti va nazariy tadqiqotlarda shu tamoyilga amal qiladi. Olim davolash usullarida mijozni o'z kasalligini yo'qotishdagi o'zining faol ishtirokiga asoslanadi. Shifokor bemorning ichki hayotiy yo'lini o'z zehni bilan (intuitiv) oshib berishi mumkin, lekin butunlay sog'ayish bemorning o'zining qo'lida bo'ladi, shu orqali o'z xulqini o'zgartirib boradi. Ham nazariy, ham amaliy jihatdan Adler insonni o'z hayotining falsafiy-tarixiy *ijodkori* sifatida ko'radi. Bu o'z ichki kuchlarini rivojlantiruvchi, shaxs sifatida kamol topuvchi o'ziga xoslik orqali namoyon bo'ladi. Har bir shaxs olim uchun – inson borlig'ining betakrorligidir, "o'zligi"ning ijodkor yaratuvchisidir: "inson, shunday qilib, ham musavvir, ham suratdir. U – o'z shaxsiy hayotining musavviri, lekin rassom sifatida u ishchi ham emas, xato qiluvchi ham emas, shaxs ham emas, u to'liq holda aql va tanani tushunmaydi ham; u ojiz, xatolarga moyil, noqis mavjudotdir" [10;177]. Lekin shu ojizlik ma'lum ma'noda uning qudratiga aylanadi: Adler ta'kidiga ko'ra, inson noqisligini to'liq anglashi "komillikka intilishi" orqali to'ldiriladi. Bu insoniy mavjudlikning oxirgi maqsadi – "o'zlikka" olib keladi, har bir shaxs o'zini-o'zi yaratadi.

Bunday qarashlar inson madaniy hayoti haqidagi ta'llimotni bir munkha to'ldirsa ham, ammo inson, uning kamoloti muammosi hamisha (ko'p hollarda) ochiq qolaveradi. Alfred Adlerning bu boradagi qarashlari ummondan bir tomchi. Zero, kishilik jamiyatni masalalari hamisha, har doim olimlar tomonidan o'rganiladigan soha bo'lib qolaveradi.

XULOSA

Tahlillar asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi::

- inson o'zi yashaydigan ijtimoiy muhittidan ajralmagan holda erkin harakat qila oladigan mavjudotdir;
- insonlar katta boylikka, pulga ega bo'lishga intiladilar, ijtimoiy axloq esa, shaxsning bunday xislatini yoqlamaydi. Shunga qaramay inson xususiyati hamda ichki ruhiy tuzilmasi shakllanishida ijtimoiy sharoit va iqtisodiy vaziyat asosiy rol o'ynaydi;
- ijtimoiylik tug'ma va irsiy "ijtimoiy hissiyot"ni tan olish bilan cheklanadi. Inson shaxsiy va ijtimoiy rivojida vorisiy o'tadigan xususiyatlarning o'zgarishi mumkinligi haqidagi masalaga ahamiyat bermaydi;
- Abu Ali ibn Sino axloqning asosiy muammolariga va axloqiy tarbiya masalasiga ilmiy yondashib, tarbiya, avvalo kishilarda mehnatga va voqeа-hodisalarga oqilona qarashni o'rgatishi kerak. Chunki, kishidagi hamma yaxshi xususiyatlar va butun insoniyat baxti ana shu aql va donolik asosida yuzaga keladi, deb uqtiradi. Ibn Sinoning ana shu qarashlari Adler fikrlari bilan hamohangdir;
- insonga xos bo'lgan ijtimoiy hissiyot va manfaat o'z negizida biologik tug'ma xususiyatga ega bo'ladi. Zero, nomukammallikni engishga intilish qanchalik tug'ma bo'lsa, ijtimoiylik hissiyoti ham shunchalik tug'madir;
- "komillikka intilish" ichki harakatni bildiradi. Bu harakat shaxs ijtimoiylashuv jarayonida yakuniylikka va yaxlitlikka olib keladi, va oxir oqibat insonni ruhiy barkamollikka intilib borishining ichki mexanizmlari ochiladi;
- Adler insonni ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'z hayotining *ijodkori* sifatida ko'radi, u o'z ichki kuchlarini rivojlantiruvchi, yetuklikka intiluvchi o'ziga xos yaxlitlik sifatida namoyon bo'ladi. Har bir shaxs olim uchun – inson borlig'ining betakrorligidir, "o'zligi"ning ijodkor yaratuvchisidir. Demak, xulosa qilamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adler A. Understanding Human Nature. -N.Y., 1928. – P. 189.
2. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. –М.: Фонд "За экономическую грамотность", 1995. – С. 155.
3. Ирисов А. Абу Али ибн Синонинг фалсафий қиссалари. –Тошкент: Ўздавнашр, 1963. – Б. 14.
4. Раҳимов С. Ибн Синонинг педагогик қарашлари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б. 78.
5. Кузнецов В.Н. Немецкая классическая философия второй половины XVIII-начала XIX века. –М.: Высшая школа, 1989. – С. 97-98.
6. Дильтей В. Описательная психология. –М., 1924. – С. 62.
7. Адлер А. Практика и теория индивидуальной психологии. –М.: Фонд "За экономическую грамотность", 1995. – С. 93.
8. Sartre J. – P. Being and Nothingness. An Essay on Phenomenological Ontology. –N.Y., 1966. –P. 561, 579, 732.
9. Адлер А. Сны и их толкование // Психотерапия. –М., 1994. - № 1. – С. 28.
10. Кант И. Соч. В шести томах. - Т. 6. – М., 1966. – С. 351.
11. The Individual Psychology of Alfred Adler. – P. 104, 114.